



PSIXOLOGIYANING BOLA TIL O'RGANISH JARAYONLARIDAGI
AHAMIYATI

Shovkatjanova Irodaxon

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiyaning bola til o'rganish jarayonidagi nazariy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Tilni egallashda biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o'zaro chambarchasligi, xususan idrok, xotira, tafakkur hamda emotsional holatlarning roli tahlil qilinadi. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi", Piagening kognitiv taraqqiyot nazariyasi, Brunerning ta'lim psixologiyasiga oid qarashlari asos qilib olingan. Maqolada o'yin faoliyati, emotsional muhit, shaxsiy yondashuvning bola nutqiy rivojlanishidagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek maqola davomida til o'zlashtirishda kattalar bilan muloqot, modeling, taqlid kabi psixologik jarayonlar ham muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Bola nutqini shakllantirishda madaniy muhit, oilaviy kommunikatsiya va pedagogik yondashuvlarning roli amaliy misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Psixologiya, til o'rganish, psixologik omillar, motivatsiya, kognitiv rivojlanish, o'ziga bo'lgan ishonch, ijtimoiy omillar, tilni o'zlashtirish, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya.

Abstract: This article highlights the theoretical and practical significance of psychology in the process of child language acquisition. It analyzes the interplay of biological, psychological, and social factors in language learning, with particular focus on perception, memory, thinking, and emotional states. The study is based on Vygotsky's "zone of Proximal Development," Piaget's cognitive development theory, and Bruner's educational psychology perspectives. The article also emphasizes the importance of play activity, emotional environment, and individual approach in the child's speech development. Additionally, psychological processes such as communication with adults, modeling, and imitation are considered crucial factors in language acquisition. The role of cultural environment, family communication, and pedagogical approaches in shaping the child's speech is illustrated with practical examples.

Keywords: Psychology, language learning, psychological factors, motivation, cognitive development, self-confidence, social factors, language acquisition, intrinsic motivation, extrinsic motivation.

Аннотация: В статье освещается теоретическое и практическое значение психологии в процессе овладения ребенком языком. Анализируется взаимодействие биологических, психологических и социальных факторов при усвоении языка, с особым вниманием к восприятию, памяти, мышлению и эмоциональным состояниям. В основу исследования положены концепция «зоны ближайшего развития» Выготского, теория когнитивного развития Пиаже и взгляды Брунера на образовательную психологию. В статье также подчеркивается важность игровой деятельности, эмоциональной среды и индивидуального подхода в речевом развитии ребенка. Кроме того, рассматриваются психологические процессы, такие как общение со взрослыми, моделирование и имитация, как ключевые факторы усвоения языка. Роль



культурной среды, семейной коммуникации и педагогических подходов в формировании речи ребенка иллюстрируется практическими примерами.

Ключевые слова: *психология, изучение языка, психологические факторы, мотивация, когнитивное развитие, уверенность в себе, социальные факторы, овладение языком, внутренняя мотивация, внешняя мотивация.*

Insonning ijtimoiylashuvi hamda shaxs sifatida shakllanishida tilning o'rne beqiyos hisoblanadi. Til orqali bola o'z fikrini ifodalaydi, atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy tajribaga ega bo'ladi hamda shaxsiy munosabatlarini shakllantiradi. Shu boisdan bolaning til o'rganish jarayonini o'rganish uchun nafaqat pedagogika, balki psixologiya fanining ham muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir.

Til o'zlashtirish jarayoni ko'p omilli va murakkab bo'ladi. Unda biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillar birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Biologik jihatdan qaraganda, bola miyasining yetukligi muhim o'rin tutsa, psixologik jihatdan idrok, xotira, tafakkur, diqqat hamda emotsional holatlari til o'rganishning dolzarb mexanizmlarini asoslab beradi.

Ijtimoiy jihatdan esa, bola muloqotda bo'lishi, o'z fikrini ifodalay olishi va atrofdagilar bilan hamkorlik qila olishi orqali tilni tezroq o'zlashtiradi. Psixologiya fanida bola nutqining rivojlanishi kabi masalalar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan. Masalan, L.S. Vigotskiy til hamda tafakkurning o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, bolaning nutqiy rivojlanishini, kognitiv taraqqiyoti bilan izohladi.

J. Piage bola tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'kidlab, til o'rganishning kognitiv poydevorlarini tushuntirib berdi. J. Bruner esa bolaning tilni o'rganishida ijtimoiy muhit hamda ta'limiy- tarbiyaviy o'yinlarning ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tdi. Bugungi kunga kelib, psixologiyaning bola til o'rganish jarayonidagi o'rne yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, til shunchaki muloqot vositasi emas, balki bolaning intellektual, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishining asosi hisoblanib kelmoqda. Shuning sababli psixologik yondashuvsiz bola nutqiy rivojlanishini chuqur anglab bo'lmaydi. Ushbu maqolada psixologiyaning bola til o'rganish jarayonidagi nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Bola tilni o'zlashtirish jarayoni tug'ilishdan boshlangan murakkab psixologik hodisa hisoblanadi.

Ilk oylaridanoq bola tovushlarni anglaydi, keyinchalik ularni fonematik eshituvi rivojlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola hayotining dastlabki 3-5 yili nutqiy rivojlanishning eng dolzarb davri hisoblanadi. Vigotskiy ta'limotiga ko'ra, bola nutqiy rivojlanishida "yaqin rivojlanish zonasi" muhim rol o'ynaydi. Bu shuni anglatadiki, bola mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar yordami bilan bajarishi mumkin bo'lgan faoliyat tilni egallash jarayonini tezlashtiradi.

Demak, psixologik yondashuvda bola nutqini shakllantirish uchun ota- onaning faol ishtiroki muhim. Piagening nazariyasi esa, bola tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini tushuntiradi. Uning ta'kidlashicha, bolaning nutqiy rivojlanishi kognitiv jarayonlarning rivojlanish darajasiga bog'liq.



Masalan, sensomotor bosqichda bola nutqni asosan sezgi hamda harakat orqali o'zlashtira olsa, operatsion bosqichlarda esa til fikrlashning mantiqiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Psixologlar emotsional muhit bola nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb ta'kidlashadi. Ijobiy kayfiyat, mehr, maqto'v va qiziqarli faoliyatlar bolaning so'z boyligi hamda dunyoqarashini kengaytiradi, ularni faol qo'llashga unday oladi. Shu o'rinda, o'yin faoliyati til o'rganishning asosiy psixologik mexanizmlaridan biri bo'lib xizmat qila oladi. Bola tilini rivojlantirishda psixologik yondashuvlarni hisobga olish amaliy ta'limda muhimdir. Masalan, quyidagi omillar katta ahamiyatga ega:

- O'yin faoliyatidan samarali foydalana olish;
- Emotsional ijobiy muhit yarata olish;
- Shaxsiy yondashuv asosida bolaning qiziqishlarini inobatga olish;
- Rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Psixologiya fanining bola til o'rganish jarayonidagi ahamiyati juda keng hamda ko'p qirrali hisoblanadi. Bir tomondan, u tilni egallashda yordam beradigan kognitiv jarayonlarni – idrok, diqqat, xotira hamda tafakkurni chuqur tahlil qilib beradi, ikkinchi tomondan, emotsional hamda motivatsion omillarning ta'sirini to'liq ochib beradi. Psixologik yondashuvsiz bola nutqiy rivojlanishini anglab bo'lmaydi, sababi, nutq bu nafaqat lingvistik, balki psixik jarayonlarning murakkab uyg'unli hisoblanadi. Til bola tafakkurining tashkiliy vositasi hisoblanib, uning fikrlash qobiliyatini kengaytiradi, ijtimoiy muloqotini shakllantiradi hamda shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu sabab, hozirda Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi, Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasi hamda Brunerning o'quv psixologiyasiga oid qarashlari bola til o'rganish jarayonida muhim metodik asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Amaliy jihatdan qaralganda, psixologik qonunlarni hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni til o'zlashtirishni sezilarli darajada oshiradi.

Masalan, o'yin faoliyatidan foydalana olish, ijobiy muhit yarata olish, bolaning nutqiy faolligini rag'batlantira olish hamda individual yondashuvni ta'minlash orqali nutqni rivojlantirish tezlashadi. Erta yoshda fonematik idrokning faol rivojlanishi (Kuhl, 2004) ta'lim jarayonini vaqtida boshlash zarurligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, psixologiya bola til o'rganish jarayonida nafaqat yordamchi, balki hal qiluvchi fan sifatida namoyon bo'ladi.

Bola shaxsining barkamol shakllanishi, tafakkurining rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvi tilni qanchalik samarali, foydali egallashiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun zamonaviy ta'limda psixologik yondashuvlardan keng foydalanish, ota-ona va pedagoglarning psixologik bilimlarini oshirish, bolaga qulay muhit yaratish zarur.

Ana o'shanda, bola tilni nafaqat o'zlashtiradi, balki uni ijodiy, to'g'ri qo'llashga, mustaqil fikr yurita olishga va jamiyatda faol muloqotga kirishishga, o'z o'zrnini topishga tayyor bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vigotskiy, L.S. (1934). "Mushakilashuv va nutq". Moskva.



2. Leontev, A.A. (1975). "Faoliyat, ong, shaxs". Moskva.
3. Luriya, A.R. (1979). "Til va ong". Moskva.
4. Piage, J. (1959). "Bolaning tili va tafakkuri". London.
5. Maslou, A. (1943). "Insoniy motivatsiya nazariyasi". Psychological Review, 50(4).
6. Bruner, J. (1983). "Bolaning so'zlashuvi: Tilni o'rganish". Oxford University Press.
7. Kuhl, P. (2004). "Erta til o'zlashtirish: Nutq kodini yechish". Nature Reviews Neuroscience, 5(11), 831–843.